

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM  
VAZIRLIGI, FARG‘ONA VILOYATI HOKIMLIGI, QO‘QON SHAHAR  
HOKIMLIGI, QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI  
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI**



**“O‘ZBEK TILI NUFUZINI MUSTAHKAMLASHNING DOLZARB  
MASALALARI” mavzusidagi  
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI**



# MATERIALLARI

QO‘QON – 2022

**Mazkur “O‘ZBEK TILI NUFUZINI MUSTAHKAMLASHNING DOLZARB MASALALARI” mavzuidagi to‘plam O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi Muqimiy nomidagi Qo‘qon davlat pedagogika instituti Qo‘qon shahar hokimligi hamkorligidagi 2022-yil 19-oktyabrda bo‘lib o‘tgan anjuman materiallaridan tashkil topgan.**

**Tahrir hay‘ati:**

**XODJAYEVA D.Sh. – institut rektori, bosh muharrir.  
JO‘RAYEV N.S – ilmiy va innovasiyalar bo‘yicha prorektor .  
TURG‘INOV A.M. – o‘zbek tili va adabiyoti fakulteti dekani.  
AKRAMOV Sh.T. – o‘zbek tili kafedrası mudiri, dotsent.  
HASANOV A.A. – o‘zbek tili kafedrası dotsenti.  
YIGITALIYEV U.S. – o‘zbek tili kafedrası dotsenti.  
RAXIMOVA M.O. – o‘zbek tili kafedrası katta o‘qituvchisi  
JO‘RAYEVA R.A. – o‘zbek tili kafedrası katta o‘qituvchisi  
MAHMUDOVA N.T. – o‘zbek tili kafedrası o‘qituvchisi  
USMONOVA S.A. – o‘zbek tili kafedrası katta o‘qituvchisi**

**Nashrga tayyorlovchilar:**

**NASIROV M.M. – o‘zbek tili kafedrası o‘qituvchisi  
RAXIMOV S.A. – o‘zbek tili kafedrası o‘qituvchisi**

**Taqrizchilar:**

**Sh.ISKANDAROVA – filologiya fanlari doktori, professor.  
I.MADRAXIMOV – filologiya fanlari nomzodi, dotsent.**

**To‘plam Qo‘qon davlat pedagogika instituti ilmiy Kengashining oktyabr oyidagi 3-sonli yig‘ilish bayoni bilan nashrga tavsiya etildi.**

***Eslatma: To‘plamga kiritilgan maqolalar shakli va mazmuniga mualliflarning shaxsan o‘zlari javobgardirlar.***

Ta'lim bosqichlarida yozma ishlarni, insholarni tahlil qilishning hozirgi ahvoli ko'pjoylarda bir muncha o'zgartirishga, takomillashtirishga muhtojdir: "Ba'zan uning o'tkazib yuborilishi, noto'g'ri munosabat bildirish, xatolarni tuzatishda og'zaki tuzatishlar va taqrizlar yozishda bir xillikni yetishmasligi" kuzatiladi. Insholarni baholashda birqator mezonlarga amal qilinadi. Bularda eng muhimlari sifatida yozma nutqning to'g'riligi, ravonligi, mavzuga mutanosiblik darajasi ifodaning aniqligi va xaqqoniyligi, mantiqiyliqi, ta'sirchanligi, boyligini ko'rsatish masalan xatolar ustida ishlashda ham birqatorv o'quvchining psixikasiga e'tibor berishi lozim. Buni agar o'quvchining har bir xatosini ko'rsatib berilsa, uning o'ziga bo'lgan ishonchi butunlay yo'qolib ketishi mumkinligi bilan o'zining xato qilib qo'yishimiz mumkin.

Demak, bunday ishlarni amalga oshirishda ham me'yorga amal qilishning eng to'g'ri yo'l bo'ladi.

## ZAMON SHAKLLARI ANNOTATSIYASIDA MORFOTAKTIK QOIDALAR

**Xonnazarov Elyor G'ofurovich**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o'zbek tili korpuslari uchun zamoni ifodalovchi grammatik shakllarni annotatsiyalashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan morfotaktik qoidalar haqida ma'lumot beriladi.

**Kalit so'zlar:** korpus, zamon shakllari, annotatsiya, morfotaktik qoidalar, o'tgan zamon, hozirgi zamon, kelasi zamon.

### ABSTRACT

This article provides information about the morphotactic rules that are important in the annotation of grammatical forms of tense for the Uzbek language Corps.

**Keywords:** corps, tense forms, annotation, morphotactic rules, the past tense, the present tense, the future tense.

### АННОТАЦИЯ

В этой статье представлена информация о морфотактических правилах, которые важны при аннотации грамматических форм времени для корпуса узбекского языка.

**Ключевые слова:** корпус, формы времени, аннотация, морфотактические правила, прошедшее время, настоящее время, будущее время.

Dunyo tilshunosligida XX asr oxirlarida til korpuslarini tuzish va ularni lingvistik annotatsiyalash dolzarb masalalardan biriga aylandi. Bu esa har bir tilga oid soʻzlarni, grammatik shakllarni teglashning dasturiy va lingvistik taʼminotini yaratishni kun tartibiga qoʻydi. Natijada XXI asrga kelib millionlab soʻzlarni oʻz ichiga olgan til korpuslari yuzaga keldi. Ularning aksariyati korpus tarkibidagi aborotning qaysi vaqtga ishora qilayotganligini zamonni ifodalovchi grammatik shakllar va vaqt maʼnoli lugʻaviy birliklarga koʻra tahlil qilish imkoniyatiga ega. Bugungi kunda feʼl zamonlarning koʻchishi, kontekstga koʻra boshqa bir zamonga ishora qilishi kabi masalalarni avtomatik tahlilda aniqlash jahon korpus lingvistikasi oldidagi muhim vazifalardan biri boʻlib turibdi.

Oʻzbek tilshunosligida XXI asr boshlaridan kompyuter lingvistikasi yuzasidan tadqiqotlar amalga oshirila boshlandi. Dastlabki tadqiqotlar jahon kompyuter lingvistikasi yutuqlari asosida oʻzbek tilini lingvostatistik va leksikografik tadqiq etish bilan bogʻliq boʻlsa, soʻnggi yillarda bevosita oʻzbek tilining milliy va sohaviy korpuslarini tuzish, morfologik, semantik analizator dasturlarini ishlab chiqish masalalariga alohida eʼtibor berilmoqda. Ayniqsa, davlat tilining axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini taʼminlash va oʻzbek tiliga oid barcha ilmiy, nazariy va amaliy maʼlumotlarni oʻzida jamlagan elektron koʻrinishdagi oʻzbek tili milliy korpusini yaratish vazifalari belgilangach[1] bu sohadagi ishlar yanada jadallashdi. Biroq yarim asrdan uzoq vaqt davomida olib borilgan tadqiqotlar natijasida toʻplangan lingvistik maʼlumotlarni til korpusi uchun lingvistik taʼminotga aylantirish hozirgacha amalga oshirilgan bir necha tadqiqotlar doirasida qamrab olinishi mumkin boʻlgan vazifa emas. Bugun dunyoda foydalanilayotgan mukammal annotatsiyalangan til korpuslarning amaliy ahamiyati va boy imkoniyatlarini hisobga oladigan boʻlsak, milliy tilimizda ham shunday korpusning tuzilishi uchun oʻzbek tilining har bir kategoriyasini oʻziga xosligidan kelib chiqqan holda

lingvistik annotatsiyalash yuzasidan tadqiqotlar olib borishga ehtiyoj bor. Ta'kidlash joizki, amalda tuzilayotgan o'zbek tili korpuslarida zamoni anglatuvchi barcha grammatik shakllar to'liq lingvistik annotatsiyalanmagan.

Zamoni ifodalovchi grammatik shakllarning annotatsiyasi ham morfologik tahlil uchun, ham sintaktik tahlil uchun muhim ahamiyatga ega. Zamon shakllarining morfologik tahlildagi ahamiyati POS (part of speech) taggingda fe'l so'z turkumiga mansub so'zshaklga grammatik xarakteristika berishda, morfoanalizator ishini takomillashtirishda ko'rinsa, sintaktik tahlil (parser)dagi mavqeyi zamonning kesimlik kategoriyasi ekanligi va kesim gap bo'lagidan muayyan bir zamon ma'nosining anglashilishi bilan belgilanadi. Sintaktik tahlil uchun zamon shakllarining annotatsiyasi nisbatan kengroq va murakkabroq bo'lib, bunda ot kesimning nol shakl va bog'lamalar bilan zamon ma'nosini ifodalashi ham qamrab olinadi.

Sh.Hamroyeva tadqiqotida morfologik tahlilning quyidagi bosqichlarini keltirib o'tadi: "1) so'zshakllarning asosini toppish – lemmatizatsiya; so'zshaklning boshlang'ich shakli – lemma yoki stemga morfologik belgilarni birlashtirish, turli so'zshakllarni bir o'zga tenglashtirish; 2) tagging – so'zshaklning kontekstdagi so'z turkumiga mansublik to'g'risidagi axborotni aniqlash; 3) to'liq morfologik tahlil – so'zshaklga grammatik xarakteristika yozish"[2, 2021:68]. Tahlilning ikkinchi bosqichi – taggingda so'zshaklning turkumi fe'l ekanligi aniqlansa (fe'lning harakat nomi va ravishdosh shakli bundan mustasno), uchinchi bosqich tahlilida boshqa xususiyatlar qatorida so'zshakl tarkibidagi zamon shakllarining annotatsiyasi ham amalga oshirilishi kerak bo'ladi.

Zamon shakllarini annotatsiyalash jarayonida ularning asosga, o'zidan oldingi va o'zidan keyingi qo'shimchaga birikish imkoniyatlari – morfotaktik qoidalar alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, omonim va polisemantik grammatik shakllarni so'zdagi pozitsiyasi hisobiga ma'nosini avtomatik farqlash ko'p hollarda morfotaktik qoidalar asosida amalga oshiriladi. O'zbek tilida so'z tarkibi odatda quyidagi tartibga asoslanadi: Asos+so'z yasovchi morfema+lug'aviy shakl hosil qiluvchi morfema+sintaktik shakl hosil qiluvchi morfema. Zamoni

qo‘shimchalari kesimlik shakli sifatida sintaktik shakl hosil qiluvchi morfemalar sirasiga kiradi. Zamon shakllari qo‘shiladigan asosga qo‘yiladigan talab tub yoki yasama bo‘lishidan qat’i nazar uning fe‘l lemma bo‘lishidir. Lemma so‘z tarkibida yasovchi qo‘shimcha bo‘lmaganda asosga, yasovchi qo‘shimcha bo‘lganda esa yasalmaga teng kelishi jihatidan zamon shakllari annotatsiyasida qolipning “asos+so‘z yasovchi morfema” qismi fe‘l lemmaga tenglashtiriladi. Bu orqali fe‘l lemma tushunchasi ostida tub fe‘llar (masalan, *kel*) ham, yasama fe‘llar (masalan, *ishla*) ham tushunilaveradi.

Zamonni ifodalovchi grammatik shakllarning fe‘l kesim tarkibida joylashuvi quyidagi model asosida belgilanadi: Fe‘l lemma+nisbat shakli+bo‘lishli/bo‘lishsizlik shakli+zamon/mayl shakli+ shaxs-son shakli+yuklama.

Zamon shakllaridan oldin qo‘shilishi mumkin bo‘lgan lug‘aviy shakl hosil qiluvchilar bu bo‘lishsizlik va nisbat qo‘shimchalari hisoblanadi. So‘z tarkibida ushbu qo‘shimchalar mavjud bo‘lganda nisbat shakli oldin, bo‘lishsizlik shakli undan so‘ng joylashadi. Masalan: *o‘qitmadi*. Bo‘lishli/bo‘lishsizlik va nisbat kategoriyasi nol shakl orqali ifodalansa, fe‘l lemmaga zamon (mayl)ni ifodalovchi grammatik shakl to‘g‘ridan to‘g‘ri birikadi. Masalan: *o‘qidi*.

Fe‘l lemmaga qo‘shiladigan sintaktik shakl yasovchilar zamon, mayl va shaxs-son ko‘rsatkichlari hisoblanadi. So‘z tarkibida zamon, mayl shakli oldin, shaxs-son ko‘rsatkichi esa undan so‘ng qo‘shiladi. Mayl shakllari orqali ham zamon ma’nosining ifodalanadi. Shaxs-son kategoriyasi birinchi va ikkinchi shaxslarda zamon shakllaridan keyin qo‘shiluvchi maxsus grammatik ko‘rsatkichlarga ega. Uchinchi shaxsda ba’zi zamon shakllaridan so‘ng shaxs-son qo‘shimchasi qo‘shiladi. Masalan, o‘tgan zamonning -b (-ib), hozirgi zamonning -a, -y, -yap (-ti shaklida qo‘shiladi), - (a)yotib, kelasi zamonning -a, -y shakllaridan so‘ng uchinchi shaxsda -di qo‘shimchasi qo‘shiladi. Lekin ba’zi zamon shakllaridan so‘ng maxsus shaxs-son ko‘rsatkichi qo‘shilmaydi. Bunda zamon shakllari shaxs-son ma’nosini ham ifoda etadi. Quyidagi zamon shakllari uchinchi shaxsda qo‘llanganda shaxs-son ma’nosini ham anglatadi:

oʻtgan zamonning -di, -gan (-kan, -qan), -gan edi (-kan edi, -qan edi), -b edi (-ib edi), -r edi (-ar edi), -yotgan edi (-ayotgan edi), -yotib edi (-ayotib edi), -yotir edi (-ayotir edi), -moqda edi, -ydigan edi (-adigan edi), -guvchi edi, -moqchi edi shakllari;

hozirgi zamonning -yotir (-ayotir), -moqda shakllari;

kelasi zamonning -r (-ar), -moqchi, -ydigan (-adigan), -ajak (-yajak), -gay (-kay, -qay) shakllari.

Shuningdek, zamon maʼnosi mayl shakllari orqali ifodalanganda buyruq-istak mayli shakllari barcha shaxslarda shaxs-son maʼnosini ham anglatadi, shart mayli shaklida birinchi va ikkinchi shaxsda maxsus shaxs-son koʻrsatkichlari qoʻllangani holda uchinchi shaxsda -sa shaxs-son maʼnosini ham ifodalaydi.

Bir guruh zamon shakllari shaxs-sonning birinchi guruh -m, -ng, -k, -ngiz shakllari bilan qoʻllanadi: -di, -gan edi (-kan edi, -qan edi), -b edi (-ib edi), -r edi (-ar edi), -yotgan edi (-ayotgan edi), -yotib edi (-ayotib edi), -yotir edi (-ayotir edi), -moqda edi, -ydigan edi (-adigan edi), -guvchi edi, -moqchi edi.

Quyidagi zamon shakllari esa shaxs-sonning ikkinchi guruh -man, -san, -di/-ti (-di shakli -(i)b, -a, -y, -(a)yotib zamon shakllari bilan, -ti esa -yap bilangina qoʻllanadi), -miz, -siz qoʻshimchalari bilan ishlatiladi: -(i)b, -gan (-kan, -qan), -a, -y, -yap, -(a)yotib, -(a)yotir, -moqda, -(a)r, -moqchi, -(y)ajak, -ydigan (-adigan), -gay (-kay, -qay).

Umuman olganda, zamon shakllarini annotatsiyalash jarayonida ularning oʻzidan oldingi va keyingi qismga birikish imkoniyatlarini hisobga olish shakllarning omonimligi va polisemantikligi bilan bogʻliq ayrim holatlarni farqlashda ham hal qiluvchi omil hisoblanadi. Bunda har bir shaklning soʻz tarkibida joylashuviga qarab anglatadigan maʼnolari boʻyicha modellar ishlab chiqiladi.

## ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda oʻzbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-6084-son farmoni // <https://lex.uz/docs/5058351>

2. Хамроева Ш. Ўзбек тили морфологик анализаторининг лингвистик таъминоти: Филол. фан. док. ...дис. – Тошкент, 2021. – 268 б.

3. Marsic G. Temporal processing of news: annotation of temporal expressions, verbal events and temporal relations: A thesis submitted in partial fulfillment of the requirements of the University of Wolverhampton for the degree Doctor of Philosophy. - Wolverhampton, 2011. -349 p.

4. Холиёров Ў. Ўзбек тили таълимий корпусини тузишнинг лингвистик асослари: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) ...дисс. – Термиз, 2021. – 176 б.

5. Хертек А.Б., Оржак Б.Ч. О морфологической разметке электронного корпуса текстов тувинского языка.//Филологические науки. Вопросы теории и практики. – 2012. № 2-7 (18). – С. 214-218.

## TIL O‘QITISH JARAYONIDA O‘QISH SAVODXONLIGINI OSHIRISH ORQALI YUQORI SAMARADORLIKKA ERISHISH

**Esonturdiyeva Dilnoza Yusupovna**

Termiz davlat universiteti Lingvistika: o‘zbek tili  
1-bosqich magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada nafaqat til o‘qitish, balki barcha ilm sohalarida yuksalishning poydevori bo‘lib xizmat qiladigan “Reading comprehension”, ya’ni o‘qish savodxonligini oshirish va bu orqali o‘quvchilarda ona tilimizni bilish, tushunish va undan amaliy foydalana olish darajasini oshirish masalalari muhokama qilinadi.

**Abstract:** This article discusses the issues of "Reading comprehension", which serves as the foundation of progress not only in language teaching, but also in all fields of science, that is, improving reading literacy and thereby increasing the level of students' knowledge, understanding and practical use of our native language.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются вопросы «Понимание прочитанного», которое служит фундаментом прогресса не только в обучении языку, но и во всех областях науки, то есть повышения грамотности чтения и тем самым повышения уровня знаний учащихся, понимание и практическое использование нашего родного языка.

**Kalit so‘zlar:** *o‘qish savodxonligi, matn turlari, rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlar, PISA, PIRLS.*

**Key words:** reading literacy, text types, developmental exercises and assignments, PISA, PIRLS.

**Ключевые слова:** грамотность чтения, типы текста, развивающие упражнения и задания, PISA, PIRLS.

Bugun rivojlangan mamlakatlarda yuqori maktab o‘quvchilari xalqaro ta’lim dasturlari asosida har qanday shakldagi ma’lumotlarni tez va ma’noli o‘qish, ularni



## MUNDARIJA

<b>1. Kirish so‘zi. Xodjayeva D.Sh.</b> - Qo‘qon DPI rektori. ONA TILI SIYOSIY YUKSALISH YO‘LIDA.....	3
<b>2. Madrahimov I.</b> - Qo‘qon DPI dotsenti, filologiya fanlari nomzodi. O‘ZBEK MILLIY TILSHUNOSLIGINING ASOSCHISI.....	5
<b>3. Yigitaliyev U.</b> - Qo‘qon DPI dotsenti <b>Umidjonov Sh.</b> - Qo‘qon DPI 3-kurs talabasi MORFOLOGIK VOSITALARNING KOGNITIV TAHLILI (“shaxs” konsepti misolida).....	12
<b>4. Akramov Sh.</b> - Qo‘qon DPI dotsenti, f.f.n.. SINTAKTIK TA‘LIMNI YANGICHA ASPEKTD A O‘RGANILISHI XUSUSIDA.....	18
<b>5. Alimova D.</b> - Qo‘qon shahar hokimining maslahatchisi. O‘ZBEK TILINING IJTIMOY MUNOSABATLARD A TUTGAN O‘RNI.....	25
<b>6. Qobilova Z.</b> - Qo‘qon DPI, filologiya fanlari doktori. AMIRIYNING SO‘Z QO‘LLASH MAHORATI.....	29
<b>7. Berdialiyev A.</b> - Xujand DU(Tojikiston R.). f.f.d.,professor. QO‘SHMA GAPLAR NAZARIYASIGA DOIR BA‘ZI MASALALAR HAQIDA.....	35
<b>8. Yuldasheva D.</b> - Buxoro DU professori, p.f.n. SINTAKTIK TAHLIL MUAMMOLARI.....	43
<b>9. Jamoliddinov M.</b> – Qo‘qon DPI dotsenti . O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTINI O‘RGANISH VA TARG‘IB ETISHDA MUAMMO VA YECHIMLAR.....	52
<b>10. Akramova L.</b> - O‘zbekiston tumani, 35-maktab oliy toifali o‘qituvchisi TILIMIZ BOR EKAN – MILLAT BARQAROR .....	55
<b>11. Xo‘jayeva F.</b> – Qo‘qon sh. 32-IDUM ona tili va adabiyoti o‘qituvchisi. UMUMTA‘LIM MAKTABLARIDA ONA TILI VA ADABIYOT FANLARINI MILLIY O‘QUV DASTURI ASOSIDA O‘QITISH:MUAMMO VA YECHIMLAR.....	58
<b>12. Yigitaliyev U.</b> – Qo‘qon DPI f.f.f.d.(Phd), dotsent. <b>Mahsutaliyeva Sh.</b> - QDPI 2-kurs magistranti STILISTIK VOSITALARNING KONSEPTUAL TABIATI.....	64
<b>13. Ganiyeva D.</b> – Andijon DU doktoranti, f.f.n., dotsent. HOZIRGI ZAMON SHAKLLARINING POLIFUNKSIONALLIGI HAQIDA.....	71
<b>14. Toshxujayeva Sh.</b> – Qo‘qon DPI PhD, dotsent. <b>Karimova Sh.</b> – “Al Bukhary University” OTM dotsenti	

SINTAKTIK PARALLELIZM – POETIK SINTAKTIK VOSITA SIFATIDA .....	77
<b>15. Rahmatullayeva D.</b> - Qo‘qon DPI f.f.f.d. (PhD), dotsent v.b. “ILM-MA’RIFAT” SEMALI LUG’AVIY BIRLIKLARNING VALENTLIGI.....	83
<b>16. Abdusamadova F.</b> – Farg‘ona v. Quvasoy sh. 1-sonli IDUM ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi. UVAYSIY LIRIKASIDA QO‘LLANGAN METAFORALAR TADQIQI.....	87
<b>17. Alimova M.</b> - Qo‘qon DPI magistranti. DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA O‘QISH VA ODOBNOMA FANLAR INTEGRATSIYASI .....	93
<b>18. Aminova A.</b> – Ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi. KONSEPTNING LINGVOKOGNITIV TAHLILI XUSUSIDA.....	97
<b>19. Meliqo‘ziyev A.</b> - FarDU 2-bosqich magistranti. PARALINGVISTIKA VA UNING DOLZARB MASALALARI.....	101
<b>20. Toirova M.</b> – Namangan v. Yangiqo‘rg‘on t. 21-o‘rta ta‘lim maktab ona va adabiyoti fani o‘qituvchisi. TILSHUNOSLIKNING NAZARIY MASALALAR. ONA TILI VA ADABIYOT O‘QITISHNING AMALIY MASALALARI.....	103
<b>21. Xonnazarov E.</b> – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti. ZAMON SHAKLLARI ANNOTATSIYASIDA MORFOTAKTIK QOIDALAR.....	110
<b>22. Esonturdiyeva D.</b> – Termiz DU magistranti. TIL O‘QITISH JARAYONIDA O‘QITISH SAVODXONLIGINI OSHIRISH ORQALI YUQORI SAMARADORLIKKA ERISHISH.....	115
<b>23. Gulmatova M.</b> - FarDU o‘qituvchisi. DARLIK ILMIY USLUB JANRI SIFATIDA VA UNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI.....	119
<b>24. Tursunova L.</b> - Qo‘qon DPI 2-kurs magistranti. INTONATSIYANING FONETIK BIRLIKLARINI BOG‘LASH VA FONOSINTAGMATIK MUNOSABATLAR HOSIL QILISHDAGI O‘RNI.....	125
<b>25. Ergashova M.</b> - Qo‘qon DPI dotsenti. GLOBAL JARAYONLARDA MADANIY O‘ZGARISHLARNING TILDA AKS ETISHI .....	128
<b>26. Ergashova M.</b> - Qo‘qon DPI dotsenti. LINGVISTIK MAYDONDA “MAKON” KONSEPTI.....	135
<b>27. Hasanov A.</b> - Qo‘qon DPI dotsenti, f.f.n.	

ABDULLA QAHHORNING SO‘Z QO‘LLASH MAHORATI.....	139
<b>28. Ismoilov X.</b> – Andijon DU katta o‘qituvchi, (PhD). <b>O‘lmasov E.</b> - Qo‘qon DPI talaba	
MULOQOT JARAYONINI TO‘G‘RI TASHKIL ETISHGA DOIR.....	141
<b>29. Rahimova M.</b> - Qo‘qon DPI katta o‘qituvchi, (PhD), <b>Muhammadqodirova F.</b> - Qo‘qon DPI talaba	
MILLIY TILIMIZ JONKUYARLARI .....	143
<b>30. Mamajonova Sh.</b> - Qo‘qon DPI magistrant	
TIL VOSITAI ROBITAI OLAMIYONDIR.....	148
<b>31. Esonaliyev I.</b> - Qo‘qon DPI, talaba	
ONA TILI DARSLARIDA ATOQLI OTLARNI O‘RGANISH.....	152
<b>32. Xudaynazarova G.</b> - Qo‘qon DPI o‘qituvchisi	
SPORT O‘YINLARI ATAMALARI TARIXI.....	154
<b>33. Qo‘shaqova M.</b> – Qo‘qon shahar 40-IDUM oliy toifali ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi.	
ONA TILI VA ADABIYOT O‘QITISHNING AMALIY MASALALARI.....	156
<b>34. Sobirova M.</b> - Qo‘qon DPI talaba.	
ONA TILIM – SHA‘NIM, SHAVKATIM.....	163
<b>35. Tursunova N.</b> Qo‘qon DPI 2-bosqich talabasi	
MATNNING LINGVISTIK TALQINIGA DOIR. ....	168
<b>36. Normurotov I.</b> - QarDU tayanch doktoranti.	
TINISH BELGILARI TIZIMINING SHAKLLANISH TARIXI.....	171
<b>37. Ostanaqulova M.</b> - Qo‘qon DPI magistrant.	
O‘ZBEK TILIDAGI IBORALARDA MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARNING AKS ETISHI.....	175
<b>38. Shukurov O.</b> – QarDU f.f.n., dotsent.	
“O‘ZBEK TILIDAGI YANGI O‘ZLASHMALARNING UMUMIY IZOHLI LUG‘ATLARDA BERILISHI.....	183
<b>39. Qo‘ldasheva D.</b> – FarDU tayanch doktoranti.	
FURQAT G‘AZALLARI FONOPOETIKASI.....	188
<b>40. Sotvoldiyeva S.</b> - Qo‘qon DPI magistrant.	
TIL – DIL KALITI.....	196
<b>41. Shamsiddinova A.</b> - Qo‘qon DPI magistrant,....	
GAZETA SARLAVHALARINING MAZMUNIIY PERSEPSIYASI .....	200
<b>42. Sotiboldiyev D.</b> - Qo‘qon DPI, talaba	
“MEN O‘ZBEKCHA GAPIRAMAN”.....	204
<b>43. Tursunova M.</b> - Farg‘ona viloyati Quvasoy shahar 21-maktab ona va adabiyot fani o‘qituvchisi.	

ADABIYOT DARSLARIDA INSHO YOZISHNING AHAMIYATI.....	208
<b>44. Xo‘janazarov X.</b> – Quvasoy shahar hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi.	
TIL EKOLOGIYASI YOKI ONA TILIMIZDAGI MUAMMOLAR.....	210
<b>45. Usmonova S.</b> - Qo‘qon DPI katta o‘qituvchisi, <b>Avazmatova Sh.</b> - Qo‘qon DPI talaba	
TOPONIMLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI.....	217
<b>46. Xojiyeva M.</b> – BuxDU o‘qituvchisi, <b>Amanova Sh.</b> – BuxDU talaba	
O‘ZBEK TILI TA’LIMIDA INTERFAOL USULLAR.....	221
<b>47. Jo‘raxo‘yeva X.</b> - Qo‘qon DPI magistrant, ONA TILIDAN TA’LIM MAZMUNINI YANGILASHNING ILMIY ZARURIYATLARI.....	224
<b>48. Yokubbayeva U.</b> – NamDU tayanch doktoranti. DAVR MAZMUNINI AKS ETTIRUVCHI LEKSEMALARNING SEMANTIK TAKOMILI.....	228
<b>49. Yo‘ldosheva D.</b> – NavDPI tayanch doktoranti. DRAMATIK ASARLARDA PLEONAZMNING QO‘LLANISHI (Usmon Azim “Bir qadam yo‘l” dramasi).....	232
<b>50. Jo‘rayeva R.</b> - Qo‘qon DPI katta o‘qituvchisi, (PhD), <b>Umaraliyeva J.</b> - Qo‘qon DPI magistrant. ZAVQIY IJODI TIL XUSUSIYATLARINING O‘RGANILISHI XUSUSIDA.....	236
<b>51. Yusupova Z.</b> – Quvasoy sh. 29-umumta’lim maktabi o‘qituvchisi. BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘ZBEK TILI O‘QITISHNING DOLZARB MUAMMOLARI.....	240
<b>52. Toshpo‘latov A.</b> - Qo‘qon DPI katta o‘qituvchisi (PhD).. ONA TILI O‘QITISHDA PRAGMATIK BAHONI O‘RGANISH.....	246
<b>53. Jumayeva K.</b> - QarDU tayanch doktoranti. “DEVONI MIRZO” ASARIDA QO‘LLANGAN DIALEKTIZMLAR TALQINI .....	251
<b>54. Zakirova D.</b> - Qo‘qon DPI o‘qituvchisi. O‘ZBEK VA RUS TILLARIDA QARG‘ISHLARNING LEKSIK XUSUSIYATLARI.....	257
<b>55. Karimova F.</b> – O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi (PhD). IJTIMOIY MAVQE VA IJTIMOIY ROL TUSHUINCHALARI TALQINI.....	261

<b>56. Qo'ziyev U.</b> – NamDU dotsenti, (PhD). O'ZGA TIL QOLIPLARI BILAN BOG'LIQ O'ZLASHMA QATLAM.....	267
<b>57. Ro'ziyeva M.</b> – BuxDU magistranti “LISON-TAFAKKUR-NUTQ MUNOSABATI” MAVZUSI – OLAMNI LISONIY MODELLASHTIRISH VOSITASI.....	272
<b>58. Turdaliyeva D.</b> - Qo'qon DPI doktoranti (PhD). MAQOL VA MATALLAR TIPOLOGIYASINING KOGNITIV-FUNKSIONAL JIHATLARI.....	279
<b>59. Usmonova S.</b> - Qo'qon DPI, katta o'qituvchi. TOPONIM – LISONIY BELGI SIFATIDA .....	281
<b>60. Xamidov M.</b> –TerDU o'qituvchisi, erkin tadqiqotchi. O'ZBEK XALQ MAQOLLARI TARKIBIDAGI “OT” VA “IT” KONSEPTLARINING SEMANTIK TADQIQI.....	286
<b>61. Murodova G.</b> Dang'ara tumani 23-IDUM o'qituvchisi. MAKTAB TA'LIMI JARAYONIDA EKOLOGIK TARBIYA BERISH.....	292
<b>62. Mo'ydinova G.</b> - Bag'dod tumani 28-umumiy o'rta ta'lim maktabi ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi . UMUMTA'LIM MAKTBLARINING ONA TILI DARSLARIDA QO'SHMA GAPLARNI O'TISH USLUBIYATI.....	295
<b>63. Xo'jamberdiyeva G.</b> – Qo'qon DPI 2-kurs magistranti. SAIDA ZUNNUHOVA SHERLARIDA SINONIMLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	298
<b>64. M.Nasirov.</b> - Qo'qon DPI, o'qituvchi. BADIY MATNADAGI EPITETLARNING PRAGMALINGVISTIK TAHLILI.....	304
<b>65. Sh.Ergashev.</b> – Qo'qon DPI 2-bosqich magistranti. FRAZEMALAR VA HIKMATLAR VOSITASIDA HURMAT MA'NOSINING IFODALANISHI.....	306
<b>66. Badalbayeva M. Y.</b> - O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi Tillar kafedrasida boshlig'i. <b>Abdurahimov S. A.</b> O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi 5-kurs kursanti. TILIMIZ MILLAT RAVNAQI UCHUN XIZMAT QILISHI SHART.....	311
<b>67. Mahmudova N.T.</b> - Qo'qon DPI o'qituvchisi, (PhD) <b>Meliqo'ziyeva M.</b> - Qo'qon DPI, talaba TELEKOMMUNIKASIYA SOHASI TERMINOLOGIK TIZIMI XUSUSIDA .....	315

---